

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MANTIQIY TAFAKKURI RIVOJLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10150200>

To'xtasinov Dadaxon Farxodovich

TATU Farg'ona filiali Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, (PhD) dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun zaruriy vositalar uslublar va texnologiyalar hmda xorijiy tajribalarning joriy etilishi bo'yicha takliflar keltirilgan

Kalit so'zlar

mantiqiy tafakkur, o'quchi, iqtidor, baholash, talabalar, ijodiy ishlar. Loyiha

Ko'plab tadqiqotlar natijalari asosida kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashni uch (moslashuvli-yo'naltiruvchi, tayanch, kreativ-produktiv) bosqichda amalga oshirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning birinchi - moslashuvli-yo'naltiruvchi bosqichi bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xosliklari bilan tanishtirish bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda bo'lajak o'qituvchida mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlash o'qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishning muhim komponenti ekanligini anglab yetishga motivatsiyani tarkib toptirish muhim sanaladi. O'quvchilar pedagogika nazariyasining "Pedagogik faoliyatga kirish" bilan bog'liq mavzularini o'rganish jarayonida "o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri", "o'qituvchining ijodkorligi", "pedagogik kreativlik", "pedagogik mahorat", "pedagogik kompetentlik" kabi tushunchalar bilan tanishish asosida kasbiy faoliyatga doir dastlabki bilimlarni egallashadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning ikkinchi - tayanch bosqichi o'qituvchida faoliyatga ijodiy yo'nalganlik, kreativ savodxonlik, ijodiy ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda o'z ifodasini topadi. Mazkur bosqichda bo'lajak o'qituvchilar tomonidan mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga qo'yiladigan quyidagi talablar o'zlashtirilishi lozim: o'quvchining individual o'ziga xosliklarini aniqlashtirish;

individual ish rejasi asosida mashg'ulotlarni tashkil etish (tyutorlik); kichik guruhlarni shakllantirish va ishini tashkil etish (fasilitatorlik); o'quvchiga individual yordam ko'rsatish (mentorlik); liderlik sifatlarini shakllantirish; ijodkorlikka yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish (edvayzerlik); "erkin ishtirok etish" turidagi mashg'ulotlarni tashkil etish; ota-onalar bilan ishlash; o'quvchilar o'rtasida shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va h.k. Shuningdek, mazkur bosqich bo'lajak o'qituvchining umumkasbiy va mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirilgan kreativ sifatlarini o'zlashtirish, diagnostik natijalar asosida o'zining kasbiy rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash kabilarni o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Aynan ushbu bosqichda bo'lajak o'qituvchida o'z-o'zini namoyon etish va o'z-o'zini rivojlantirish namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashning uchinchi - kreativ-produktiv bosqichi mazkur jarayonni amalga oshirishga doir barqaror motivlarni qaror toptirish, o'quv-kasbiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan kreativ savodxonlik, kreativ ko'nikma va qobiliyatlarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda qo'llash va faollashtirish bilan tavsiflanadi (1-rasmga qarang).

I bosqich –
moslashuvli-
yo'naltiruvchi
(1-kurs):

- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir kreativ motivatsiyani shakllantirish;
- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir kasbiy faoliyatning o'ziga xosliklari bilan tanishish;
- kreativ yondashuv bo'lajak o'qituvchining o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir faoliyatining muhim komponenti ekanligini anglash;
- "Pedagogika nazariyasi" kursini o'rganish jarayonida o'quvchilarni aqliy tarbiyasi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish.

II bosqich –
tayanch (2-3
kurslar):

- bo'lajak kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni qaror toptirish;
- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir kreativ savodxonlik, kreativ ko'nikma va qobiliyatlarni jadal shakllantirish;
- "Iqtidorli o'quvchilar psixologiyasi" tanlov fani va "Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi" fanlarini o'zlashtirish orqali bilimlarini oshirish;
- ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, qo'shimcha fanlar bloklaridagi bilimlarni o'zlashtirish asosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir kompetentlikni qaror toptirish;
- bo'lajak o'qituvchining umumkasbiy va 5-9 sinf o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirilgan kreativ sifatlarni o'zlashtirish, diagnostik natijalar asosida o'zining kasbiy rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash.

III bosqich –
kreativ-
produktiv (4-
kurs):

- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir barqaror motivlarni qaror toptirish;
- o'quv-kasbiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan kreativ savodxonlik, kreativ ko'nikma va qobiliyatlarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda qo'llash va faollashtirish;
- pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasi va 5-9 sinf o'quvchilarni tanlash, ular bilan ishlashning kreativ shakl, metod, vosita va texnologiyalarini amaliyotda qo'llash va o'z faoliyatini korreksiyalash.

1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga tayyorlash tizimi

Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilgan va davom etayotgan islohotlar asosini ham o'qituvchi shaxsining zamonaviy qiyofasini yaratish masalasi tashkil etadi. Buning uchun tabiiy ravishda jahonning ilg'or ta'lim-tarbiya konsepsiyalariga tayanib ish ko'rish zarurati oldingi o'ringa chiqadi. Ilg'or xorijiy tajriba va texnologiyalarga ko'ra mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarni tarbiyalash hamda rivojlantirishda bo'lajak o'qituvchilarni o'z o'quvchilari uchun maslakdosh, yetakchi, maslahatchi sifatida shakllantirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga tayyorlashda edvayzerlik faoliyatiga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Edvayzerlikning

konseptual asosini “o‘qituvchi – o‘quvchi” munosabatida an’anaviy ta’limda mavjud bo‘lgan bir tomonlama yo‘nalganlik, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik vazifalarning barchasi o‘qituvchi zimmasida bo‘lishi emas, balki o‘quvchining ana shu jarayonning faol a‘zosiga aylanishi tashkil etadi. O‘qituvchi-edvayzer ayni jarayonni tashkil etishning ilg‘or texnologiyalariga yo‘naltiruvchi yetakchi maslahatchi maqomini oladi, o‘quvchilar iqtidorining kashfiyotchisiga aylanadi.

Edvayzerlik faoliyati o‘z navbatida maslahatchi, tyutor, moderator va fasilitator bo‘lishni talab etadi. Interfaol ta’lim sharoitida o‘qituvchining maslahatchilik rolga alohida ehtiyoj tug‘iladi. Maslahat berish muammoni hal etish va o‘quvchi faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kiritishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi-maslahatchi va o‘quvchilarning alohida tarzda tashkil etilgan o‘zaro birgalikdagi harakatidir.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida maslahatchilikka doir faoliyatning bir nechta turlari taklif etilgan: ekspert, loyiha rahbari va tashkilotchi modellari farqlanadi. Mazkur modelning mohiyati o‘qituvchining o‘quv materialini an’anaviy tarzda bayon etishini emas, aksincha ta’lim berish funksiyasi real va masofaviy tarzda uni o‘zlashtirish bo‘yicha zaruriy maslahat berib borishni nazarda tutadi. Maslahat berish ma’lum bir aniq o‘quv muammosini hal etishga qaratiladi. Mazkur jarayonda maslahatchi o‘quvchiga o‘quv muammosining aniq yechimini yoki uni hal etishga doir faoliyat usullarini taklif etishi mumkin. Ushbu o‘qitish modelida o‘qituvchining asosiy maqsadi o‘quvchini o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘qituvchining tyutorlik faoliyati deganda o‘quvchilarning individual ishiga umumiy rahbarlik qilish tushuniladi. Tyutorlik quyidagi tamoyillar asosiga quriladi: o‘quvchi shaxsiga individual yondashish; o‘quv jarayonini tashkil etishga yordamlashish.

Tyutorlikning zamonaviy talqini quyidagi jihatlarda o‘z ifodasini topadi: ta’limda sub’ektivlik muammosini hal etishning samarali yo‘li. Ya’ni o‘qituvchi o‘quv muammolarini hal etishda o‘quvchining mustaqilligi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga erishish; o‘quvchining ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishiga hamrohlik qilish (tayyor materiallarni berish emas, o‘quvchi bilan birgalikda hamkorlikda harakatlanish); o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol topishi, uning shaxsiy va o‘quv faoliyatiga doir muammolarini hal etishga ko‘maklashish. Garchi tyutorlik maslahatchilik faoliyatiga o‘xshash bo‘lsada, undan farqli ravishda sinfda o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida har bir o‘quvchining bilishga qiziqishi,

xohish-istaklari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, zamonaviy kommuni-katsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Moderator faoliyati mazmuni o'qituvchining an'anaviy rolidan farq qiladi. Moderatsiya vaziyati o'qituvchining doska oldida turib, monologik tarzda materialni bayon qilishini talab etmaydi, aksincha asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarga qaratiladi. Moderatsiya jarayonida guruhlarda ishlash orqali birgalikda o'qitish va o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish-lariga erishiladi. Moderatorning mas'uliyati guruhlarda ishlashni oldindan o'ylangan tartibda tashkil etishi, hamkorlikda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi va hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni samarali hal etishga ko'maklashishda namoyon bo'ladi. Moderator o'zlashtirilayotgan materialning mazmuniga emas, jarayonni boshqarishga rahbarlik qiladi. Ana shu sababli moderator ijtimoiy aloqalarni oson yo'lga qo'yish, guruhlardagi ijtimoiy rollarni to'g'ri taqsimlash, guruhiy dinamikani tushunish, shaxslararo o'zaro birgalikdagi harakatni boshqarish kabi yuqori darajadagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarni mustaqil, mas'uliyatli, ijtimoiy jihatdan safarbarlikka moyil shaxs sifatida shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida munosib o'rin topishiga tayyorlash uchun ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z faoliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga odatlantirish lozim. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'quv-bilish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni asosan o'quvchilarga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilarning moddiy borliq, atrofdagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning rivojlanish jarayonini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashda ularning munosabatlarini sinchiklab o'rganish, tuzatish, tiklash va rivojlantirish nihoyatda zarur. O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi, ularning intellektual, jismoniy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy jihatdan bir maromda rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

O'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun o'quv-bilish jarayonida ular faoliyatini yaxshilash maqsadida, muntazam tarzda rivojlantiruvchi didaktik harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik harakatlar natijasida ular o'z taraqqiyotlarining muayyan bosqichiga ko'tariladi. Buning natijasida esa, o'quvchilarning imkoniyatlari va intellektual quvvatlari ro'yobga chiqadi. Natijada, o'quvchilar o'quv faoliyatida ilgarilashga muvaffaq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мадибрагимова, И., & Бозоркулов, А. (2023, November). ИССЛЕДОВАНИЕ КРАЕВЫХ ЗАДАЧ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ ГИПЕРБОЛО-ИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

2. Yusupov, Y. A., & Madibragimova, I. M. (2023, November). 1. QUYOSH PARABOLOSILINDRIK KONTSETRATOR QABULQILGICHINING ISSIQLIK XUSUSIYATLARINI O'LCHASH USULLARI. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

3. Мадибрагимова, И. (2023, October). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ С ПОМОЩЬЮ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

4. Мадибрагимова, И., & Бозоркулов, А. (2023, November). СПОСОБЫ ЗАДАНИЯ МНОЖЕСТВ. ОПЕРАЦИИ НАД МНОЖЕСТВАМИ И ОСНОВНЫЕ РАВЕНСТВА. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

5. Nasriddinov, O., & Tolipov, N. (2023, November). KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA МАТЕМАТИКА О 'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING АНАМИЯТИ. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

6. Daliyev, B., & Nasriddinov, O. (2023, November). ABELNING UMUMLASHGAN INTEGRAL TENGLAMASINI TAQRIBIY YECHISH UCHUN KVADRATUR FORMULANING ЭКСТРЕМАЛ FUNKSIYASI. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

7. Насриддинов, О., & Сатволдиев, И. (2023, November). ЦИЛИНДРДА БИГАРМОНИК ТЕНГЛАМА УЧУН КЎЙИЛГАН ИЧКИ-ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА ҲАҚИДА. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

8. Толипов, Н. И., Насриддинов, О. У., & Бозоркулов, А. А. (2023). ОБ ОДНОЙ НЕКОРРЕКТНОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ БИГАРМОНИЧЕСКОГО УРАВНЕНИЯ ВНЕ КРУГОВОГО СЕКТОРА. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(5), 90-93.

9. Usubjonovich, N. O., Abdujabborovich, B. A., & Azatovich, M. O. (2023). DIFFERENSIAL TENGLAMAGA KELUVCHI MEХАНИКА MASALASINI

MAPLE DASTURIDA YECHISH. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(5), 76-79.

10. Farxodovich, T. D., & Azatovich, M. O. (2023). DISKRET MATEMATIKADA MARSHRUTLAR VA ZANJIRLAR. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(5), 67-71.

11. Maniyozov, O., Bozorqulov, A., & Isomiddinova, O. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BIRINCHI TARTIBLI CHIZIQLI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING BIRINCHI TARTIBLI CHIZIQLI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING YECHIMINI MAPLE DASTURIDA TOPISH. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*,(1), 190-202.

12. Жўраева, Д., & Маниёзов, О. (2023, November). ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ ОДДИЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМА УЧУН ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛАНИ ГРИН ФУНКЦИЯЛАРИ УСУЛИ БИЛАН ЕЧИШ. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

13. Жураева, Д. (2023, November). ПРИМЕНЕНИЕ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ: НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ЭКСПЕРИМЕНТЫ И ВИЗУАЛИЗАЦИЮ. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.

14. Саидов, М. И. (2023). ЦЕНТРАЛЬНАЯ ПРЕДЕЛЬНАЯ ТЕОРЕМА ДЛЯ СТАТИСТИК ФИШЕРА. *GOLDEN BRAIN*, 1(26), 159-164.

15. Саидов, М. (2023, October). НОРМАЛЬНЫЕ ФОРМЫ. СОВЕРШЕННЫЕ НОРМАЛЬНЫЕ ФОРМЫ. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.